Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi instituti 60810600 – Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi (ekin turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun Meva-sabzavot va poliz ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi 1-2 qism fanidan tayyorlangan fan dasturi va sillabusiga

TAQRIZ

Fan dasturi va sillabusida talabalarning Meva-sabzavot va poliz ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi fani bo'yicha bilim va malakalarini egallashi, ko'nikmalarini shakllantirishiga qaratilgan mavzular qamrab olingan. Fan dasturi va sillabusda Meva-sabzavot va poliz ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi fanni o'qitishdan maqsad meva-sabzavot va poliz ekinlari turlari va navlari to'g'risida; chatishtirish: oddiy, pog'onali, ikki marotaba, teskari; duragaylash va uning moxiyati; mutagenez, poliploidiya, geterozis va populyasiyalar; urug'shunoslik va urug'chilikni bilish kerak, mutagen omillar ta'siri; tashqi muhit, agrotexnika ta'siri; navlarni yaxshilash, xosildorligini oshirish; urug'lar sifatini yaxshilash va urug' xosildorligini oshirish, seleksiya jarayonini tashkil etishni; otalik va onalik o'simliklarini tanlash va gullarni kastrasiya qilishni; sun'iy changlashni; urug'li o'simliklarni parvarishlashni; duragay urug' ko'chatlarni vegetativ belgilari bo'yicha tanlashni; duragaylar va urug'li o'simliklarda aprobasiyani; urug'larda xisoblash va xujjatlashtirishni o'rganishdan iborat.

60810600 – Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi (ekin turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun Meva-sabzavot va poliz ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi fani 5/6 semestrlarda rejalashtirilgan bo'lib, unda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlari mavzulari fan dasturi asosida tuzilgan, mavzular ketma-ketligi bir-birini to'ldirib, fanning barcha bo'limlarini qamrab olgan. Mustaqil ta'lim mavzulariga alohida e'tibor berilgan bo'lib ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar mavzularida keltirilgan mavzular mustaqil ta'lim mavzulariga kiritilmaganligi talabalarning mustaqil ta'limlarda o'zlari mustaqil ravishda ishlashga qaratilgan.

Bundan tashqari fan dasturi va sillabusida keltirib o'tilgan adabiyotlarning ro'yxati o'zlarining tarkibi jihatdan sillabusda keltirilgan mavzularni ma'ruza va amaliy mashg'ulot hamda mustaqil ta'lim mavzularini o'zlashtirishda amaliy yordam beradi.

Umuman olganda fan dasturi va sillabusi 60810600 – Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi (ekin turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun Meva-sabzavot va poliz ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi fanidan tuzilgan bo'lib, oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan qo'yilgan barcha talablarga to'liq javob beradi va uni foydalanishlari uchun tavsiya etaman.

Samarqand Agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti meva-sabzavotchilik va uzumchilik kafedrasi mudiri, professori, q.x.f. doktori. **S.T.Sanaev**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
Agrobiotexnologiyalar va oziq- ovqat xavfsizligi instituti

Ro'yxatga olindi: № 60810600 2024 yil "09" 30		**"TASDIQLAYMAN"** SamDU rektori: R.I.Xalmuradov 2024 yil "__" _____

MEVA-SABZAVOT VA POLIZ EKINLARI SELEKSIYASI, URUG'CHILIGI 1-2 QISM
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	800000 –Qishloq, o'rmon baliq xo'jaligi va veterenariya
Ta'lim sohasi:	810000 – Qishloq xo'jaligi
Ta'lim yo'nalishi:	60810600 – Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi (ekin turlari bo'yicha

Fan/modul kodi MSPSU1508 MSPSU1608	O'quv yili 2024-2025	Semestr 5/6	ECTS – Kreditlar 8
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 6

	Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Umumiy (soat)
	Meva-sabzavot va poliz ekinlari seleksiyasi, urug'chiligi 1-2 qism	106	134	240

Fanning maqsadi (FM)	
	I. FANNING MAZMUNI
FM1	**Fanni o'qitishdan maqsad** - talabalarga meva-sabzavot va poliz ekinlari seleksiyasi va urug'chiligining tub mohiyati, hozirgi ahvoli va rivojlantirish istiqbollari bilan tanishtirish, yangi mahsuldor, yuqori hosil beruvchi navlarni yaratish usullari va urug' hosildorligini oshirishning samarali yo'llarini o'rganishga qaratish. **Fanning vazifalari:** talabani ushbu fan bo'yicha olgan nazariy va amaliy bilimlarini birituv ishlarini bajarish bilan real sharoitiga qo'llash bo'yicha ko'nikmalar hosil qilishdir.

Fan mazmuni	
II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) **II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**	
Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)	
5-semestr uchun ajratilgan ma'ruza	
M1	**Meva-sabzavot va poliz ekinlari seleksiyasi, urug'chiligi fanining maqsadi va vazifasi** Meva-sabzavot va poliz ekinlari seleksiyasi, urug'chiligi fanini qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning ilmiy tarmog'i sifatida o'zlashtirish; meva-sabzavot va poliz ekin turlari hamda nav va duragaylarining tavsifi va morfologik belgilarni o'rganish; gullarning tuzilishi, gullarning changlanish biologiyasini va chatishtirish texnikasini mukammal o'rganish; yangi nav yaratish uchun dastlabki materiallarni izlab topish, seleksiya jarayonlarini tashkil etish va elita urug'larini yetishtirish texnologiyasining xususiyatlarini o'rganish. Meva-sabzavot va poliz ekinlari urug'larining ekilish va navdorlik sifatlarini yaxshilab borish tadbirlarini ishlab chiqish va qo'llash.
M2	**Sabzavot va poliz ekinlari seleksiyasi, urug'shunosligi va urug'chiligi. Sabzavot ekinlari seleksiyasining biologik asoslari** Qishloq xo'jaligida "Sabzavot va poliz ekinlari seleksiyasi, urug'shunosligi va urug'chiligi" fanining ahamiyati va o'rni. Ishlab chiqarishga yangi nav va duragaylar yaratishda, yuqori sifatli urug' yetkazib berishda seleksiya, urug'shunoslik va urug'chilikning vazifasi. Xalq seleksiyasi va uning sabzavot, poliz ekinlari navlarini yaratishdagi mavqyei. O'zbekiston Respublikasi seleksionerlarining yangi yutuqlari. "Seleksiya yutuqlari to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi qonuni. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xususiy mulkchilik va dehqon-fermer xo'jaliklarning shakllanishi munosabati bilan yangi nav yaratishda hozirgi davr talabini o'rganish. A'lo sifatli, mahsuldor, kasalliklarga chidamli yangi nav va duragaylarni yaratishning ahamiyati.
M3	**Sabzavot ekinlari belgilari. Gullash biologiyasi va ko'payish usullari** Sabzavot o'simliklarining tavsifi. O'simliklar belgilari to'g'risida tushuncha. Belgilar tavsifi. Korrelyasiya hodisasi. O'simliklarning ko'payish usullari va gullash biologiyasi. O'simliklarning vegetativ va generativ ko'payishi. O'z-o'zidan changlanadigan, chetdan changlanadigan va vegetativ yo'l bilan ko'payadigan sabzavot o'simliklari.
M4	**Seleksiya manbalari va birlamchi materiallar yaratish. Baho berish usullari** Seleksiya jarayonining mohiyati. Uch bosqich: birlamchi material yaratish, tanlash va sinash. Birlamchi materiallar yaratish yo'llari va manbalari. Introduksiya, naturalizasiya va akklimatizasiya tushunchalari. O'simliklarni seleksiya ishlarining yo'nalishlariga qarab baholash. Ayrim belgilar yoki belgilar majmui bilan baholash: o'suv davri davomiyligi, mevalarning tovarboplik xususiyatlari, mexanizasiya yordamida yetishtirishga yaroqliligi bo'yicha baholash va hokazo.
M5	**Seleksiya populyasiyalarini yaratish. Geterozis va uning amalda qo'llanilishi** Seleksion populyasiyalar yaratish usullari. Tanlash uslublari: oddiy va yaxshilangan yalpi tanlash; yakkalangan va yakkalanmagan oilaviy tanlash; yarim uslub. Yakka va yalpi klonli tanlash. Geterozis haqida tushuncha. Chatishtirish turlari. Duragay urug' olish usullari.
M6	**Seleksiya jarayonini tashkil etish. Davlat nav sinovi** Seleksiya jarayonini tashkil etish texnikasi: yer tanlash, yer bo'lakchalarini joylashtirish, yer bo'lakchalarining maydonlari va qaytariqlar soni. Ko'chatzorlar: birlamchi materiallar ko'chatzori, seleksiya, nazorat va tanlov ko'chatzorlari. Elita va superelita urug'larini yig'ib olish. Davlat

	nav sinovi vazifalari. Sinalayotgan navlar ichidan eng serhosil, sifatli mahsulot beradigan va boshqa qimmatli belgilari bo'lgan navlarni ajratib olish va rayonlashtirish. Nav sinovida o'tkaziladigan agrotexnik tadbirlar hamda hosilni hisoblash usullari.
	6-semestr uchun ajratilgan ma'ruza
M7	**Sabzavot-poliz ekinlari urug'chiligining vazifasi va uni tashkillashtirish** O'zbekistonda sabzavot-poliz ekinlari urug'chiligini tashkil etish va urug'chilikning vazifalari. "Urug'chilik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Urug' fondlari tavsifi. Urug'chilik tarmog'ining rivojlanish tarixi. Superelita va elita urug'larini yaratish. Superelita va elita urug'larini hujjatlashtirish. Navdor urug'larni ko'paytirish va urug'chilikni mintaqalararo joylashtirish xususiyatlari. Urug'chilik tarmoqlarini xususiylashtirish.
M8	**Urug'shunoslik asoslari** Sabzavot ekinlari urug'shunosligi. Urug'shunoslikning vazifalari. Sabzavot ekinlari urug' va mevalarining tasnifi va morfologik belgilari. Mevalar tasnifi. Urug'larning morfologik belgilari, rangi va yirik-maydaligi. Urug'larning shakllanishi va pishib yetilishi. Urug'lardagi tinim davri. Urug'lar unishining fazalari. Urug'lar bo'rtishi. Urug'lar unib chiqishiga ta'sir ko'rsatadigan omillar
M9	**Meva-rezavor ekinlari seleksiyasi va navshunosligi.** **Meva-rezavor ekinlari seleksiyasi. Uning bog'dorchilikda tutgan o'rni va jadallashtirishdagi ahamiyati** Meva va rezavor meva ekinlari seleksiyasi hamda navshunosligi to'g'risida tushuncha. Bog'dorchilikni jadallashtirishda seleksiyaning axamiyati. Mevali va rezavor mevali ekinlar seleksiyasining boshqa fanlar bilan bog'liqligi, genetika, navshunoslik va boshqa biologik, qishloq xo'jalik fanlari bilan aloqadorligi.
M10	**Pomologiya asoslari** Mevachilikda nav tushunchasi. Navshunoslik tarixi. G'arbiy Yevropa mamlakatlarida navshunoslikni rivojlanishi. Meva va rezavor mevali ekinlar navlarini o'rganish bosqichlari va usullari. Navlarni muhim xo'jalik va biologik xususiyatlarini o'rganish usullari. Navlar biologiyasi. Navlarning eng asosiy morfologik belgilari. Belgilarni o'zgaruvchanligini aniqlovchi omillar. Navlarni pomologik ta'riflash sxemasi. Rayonlashtirilgan mevalarni ko'paytirish va nav tozaligini saqlash.
M11	**Meva-rezavor ekinlari navlarini xo'jalik-biologik tomondan o'rganish asoslari** Meva-rezavor ekinlarining muhim xo'jalik xususiyatlari. Dala va laboratoriya sharoitlarida navlarning qishga va sovuqqa chidamliligini

	o'rganish. Navlarning hosilga kirish muddatlari, o'z-o'zini changlash qobiliyati. Navlarga changlovchi navlar tanlash. Navlarning tashqi stress omillariga bo'lgan chidamliligini o'rganish.
M12	**Seleksiya uchun dastlabki material tanlash** Madaniy va yovvoyi turlarning seleksiya uchun istiqbolli shakllari. Mahalliy navlarning ahamiyati. Navlar majmuini yaxshilashda introduksiyaning ahamiyati. Madaniy o'simliklarning kelib chiqish markazlari bo'yicha N.I.Vavilov ta'limoti, uning seleksiyadagi ahamiyati
M13	**Seleksiya usullari** Yangi nav yaratishda tabiiy va oddiy duragaylardan foydalanish, o'z-o'zini changlash (insuxt) usuli. Meva ekinlari seleksiyasida poliploidlardan foydalanish. Mutasion o'zgaruvchanlik. Sun'iy mutagenez va mutagen omillar. Kurtaklar variasiyasi yoki juz'iy o'zgarish. Ularni aniqlash usullari. Fenotipik va genotipik o'zgaruvchanlik.
M14	**Turlararo va turlar ichida chatishtirish** Yangi nav yaratishda ota-ona juftlarini tanlash ilmiy asoslari. Nav modelini yaratish. Ota-ona juftlarini ekologik, geografik tamoyil bo'yicha tanlash, chatishtirish xillari. Oddiy va murakkab chatishtirish. Resiprok chatishtirishning ahamiyati. Turlararo chatishtirish, meva ekinlari seleksiyasida uning ahamiyati. Uzoqdan chatishmaslikni bartaraf qilish. Duragay nihollarni o'stirish texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari. Nihollarga baho berish va ularni tanlash
M15	**O'zbekistonda urug'li va danakli meva ekinlari seleksiyasi** Mevali, rezavor mevali ekinlari xususiy seleksiyasi. Olma, nok, o'rik, gilos, shaftoli, olxo'ri seleksiyasi vazifalari. Ekishga ruxsat etilgan rezavor mevalarni yaxshilash va boyitish. Yangi navlar yaratishda ota-ona juftlarini tanlash prinsiplari. O'zbekistonda urug'li va danakli meva ekinlari navlarini ekologik-geografik guruhlari. Ularning tasnifi. Seleksiya uchun birlamchi material tanlash. Seleksiya usullari, chatishtirish, duragay nihollarini o'stirish. Mavjud navlar majmuining qiyosiy tasnifi. Navlar majmuini yaxshilashda introduksiyaning ahamiyati
III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: Amaliy (A) Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.	
	5-semestr uchun ajratilgan amaliy mashg'ulot
A1	Sabzavot va poliz ekinlari belgilari, ularning o'zgaruvchanligi va baholash usullari.
A2	Gullarning tuzilishi va changlanish xususiyatlari.
A3	Sabzavot va poliz ekinlarini chatishtirish texnikasi va himoyalash usullari.
A4	Seleksiya populyasiyalarini yaratish, superelita va elita tanlash.

A5	Seleksiya jarayonini tashkil etish. Dastlabki material tanlash.
A6	Davlat nav sinovi va navlarni rayonlashtirish.
A7	Urug'lik o'simliklarining to'pgullari va mevalarining morfologik xususiyatlari.
A8	Sabzavot va poliz ekinlari urug'lari sifatining xilma-xilligi.
A9	Urug'chilik sohasida aprobasiya o'tkazish.
A10	Sabzavot ekinlari urug'chiligida hisoblash tartiboti.
A11	Mevali ekinlar guli va mevasining tuzilishi.
A12	Gullarni bichish, izolyasiyalash va changlash.
A13	Mevali ekinlar navlarini pomologik tavsiflash.
A14	Mevali ekinlar rayonlashtirilgan navlarini qisqacha morfologik va xo'jalik-biologik tavsiflash.
6-semestr uchun ajratilgan amaliy mashg'ulot	
A15	Urug'li meva ekinlarining asosiy biologik xususiyati, morfologik-xo'jalik belgilarining o'zgaruvchanligi.
A16	Danakli meva ekinlarining asosiy biologik xususiyati, morfologik-xo'jalik belgilarining o'zgaruvchanligi.
A17	Mevali ekinlar muhim xo'jalik-qimmatli belgilarining o'zgaruvchanligini keltiradigan omillar.
A18	Urug'li meva ekinlari seleksiyasi usullari va vazifalari.
A19	Danakli meva ekinlari seleksiyasi usullari va vazifalari.
A20	Mevali va rezavor mevali ekinlar yangi navlarini yaratish dasturini ishlab chiqish.
A21	Sabzavot ekinlari nav belgilari, ularning baholash usullari.
A22	Sabzavot va poliz ekinlari gullarning changlanish o`tkazish.
A23	Poliz ekinlarini chatishtirish olib borish tartibi.
A24	Seleksiya va urug`chilik xo`jaliklarida superelita va elita tanlash.
A25	Sabzavot va poliz ekinlarida dastlabki material tanlash.
A26	Davlat nav sinovi va navlarni rayonlashtirish.
A27	Sabzavot ekinlarida urug'lik o'simliklarining to'pgullari va mevalarining morfologik xususiyatlari.

IV. **Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

"Meva-sabzavot va poliz ekinlari seleksiyasi, urug'chiligi 1-2 qism " fani bo'yicha mustaqil ta'lim va ishlarning kalendar tematik rejasi

№	Mustaqil ta'lim mavzulari
5-semestr ajratilgan Mustaqil ta'lim mavzulari	
1.	Sabzavot ekinlari seleksiyasida duragaylash, poliploidiya, mutagenez. Mutagen omillar turlari, ularni yangi sabzavot navlari olishdagi ahamiyati.
2.	Irsiy jihatidan bir-biridan uzoq bo'lgan o'simliklarni duragaylash. Changlanmaslik yo'llarini bartaraf etish usullari.
3.	Yangi navlar va duragaylar olishda ota-ona juftlarini tanlash yovvoyi turlardan foydalanish, birlamchi material tanlash.
4.	Qishloq xo'jaligi taraqqiyotida urug'chilikning ahamiyati. O'zbekistonda sabzavot ekinlari urug'chiligining hozirgi holati.
5.	Poliz ekinlarida duragay urug'larni olish usullari. Yangi navlar va duragaylar olishda ota-ona juftlarini tanlash. Duragay o'simliklarni baholash.
6-semestr ajratilgan Mustaqil ta'lim mavzulari	
6.	Meva ekinlari seleksiyasida yovvoyi turlardan foydalanish. Meva ekinlari seleksiyasida tabiiy duragaylarning ahamiyati.
7.	Seleksiyada mahalliy navlardan foydalanish. Mahalliy navlarining qishloq xo'jaligi va seleksiyadagi ahamiyati.
8.	Urug'li meva ekinlari seleksiyasi. seleksiya usullari, dastlabki material tanlash, seleksiya jarayoni.
9.	Danakli meva ekinlari seleksiyasi. Danakli meva ekinlari seleksiyasining bugungi ahvoli va rivojlantirish istiqbollari.
10.	Rezavor mevali va yong'oq mevali ekinlar seleksiyasi.
Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan mavzularni normativ-huquqiy hujjatlar va o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish, ilmiy maqola, tezislar tayyorlash, amaliyotdagi mavjud muammolarni yechimini topish, fanning dolzarb muammolarini qamrab oluvchi loyihalar tayyorlash, o'rganilayotgan mavzu bo'yicha asosiy ilmiy adabiyotlarga annotasiya yozish kabi ko'rinishdagi ishlarni bajarish tavsiya etiladi.	

3.	**V. Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: –meva-sabzavot va poliz ekinlari turlari va navlari to'g'risida; chatishtirish: oddiy, pog'onali, ikki marotaba, teskari; duragaylash va uning moxiyati; mutagenez, poliploidiya, geterozis va populyasiyalar; urug'shunoslik va urug'chilikni ***bilish kerak;***

	–mutagen omillar ta'siri; tashqi muhit, agrotexnika ta'siri; navlarni yaxshilash, xosildorligini oshirish; urug'lar sifatini yaxshilash va urug' xosildorligini oshirish ***ko'nikmalarga ega kerak;*** seleksiya jarayonini tashkil etishni; otalik va onalik o'simliklarini tanlash va gullarni kastrasiya qilishni; sun'iy changlashni; urug'li o'simliklarni parvarishlashni; duragay urug' ko'chatlarni vegetativ belgilari bo'yicha tanlashni; duragaylar va urug'li o'simliklarda aprobasiyani; urug'larda xisoblash va xujjatlashtirishni bilish ***malakalarga ega bo'lishi kerak.***
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • *munozara,* • *o'z-o'zini nazorat.* • "Aqliy hujum", • "Muammo"; • Krossvord • Annogrammalar • Ko'chma dars mashg'ulotlari
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllari, hamda mustaqil ta'limda berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish

Asosiy adabiyotlar:

1. X.Ch.Bo'riyev, I.T.Ergashev, D.S.Normurodov, M.Aramov, B.M.Eshonqulov Sabzavot ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi. Samarqand SamDU nashri –2021
2. Ergashev I.T., Normurodov D.S., Eshonqulov B.M Sabzavot ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi. Samarqand: SamDU nashri. 2021 y. –208 b.
3. I.T.Ergashev, D.S.Normurodov, B.M.Eshonkulov, F.A.Oblokulov Kartoshka seleksiyasi va urug'chiligi. O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2021 y. –176 bet
4. I.T.Ergashev Meva va rezavor meva ekinlari seleksiyasi va navshunosligidan amaliy mashg'ulotlar 2007
5. https://t.me/agrobank_100kitob

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Sabzavot-poliz ekinlari, meva va uzumchilikni rivojlantirish va kompleks qayta ishlash Kengashi taqdim etgan 2004-2010 yillarda tarmoqli takomillashtirish Dasturi. Hay'at qarori. T., 2004.
2. O'zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jalik ekinlari Davlat Reyestriga 2007-2017 yillarda kiritilgan navlar navlar va duragaylarning tavsiyalari. Toshkent. 2017. – B. 314-333.
3. O'zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jalik ekinlari Davlat Reyestri. T., 2018.
4. Bo'riyev X.Ch., Dusmuratova S.I. Sabzavot ekinlari seleksiyasi va urug`chiligi. Ma'ruza matni.
5. Bo'riyev X.Ch., Dusmuratova S.I. urug`lar analizining xalqaro qoidalari. ToshDAU, 1999.
6. O Ergashev I.T. Sabzavot ekinlari seleksiyasi va urug`chiligi. Maruza matnlari. Samarkand.
7. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" to'g'risidagi qonuni. T., 1997.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasini isloh qilish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" qarori. PF-3709-Farmoni. // Xalq so'zi – 2006 yil 11 yanvar.
9. O'zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jalik ekinlari Davlat Reyestri. T., 2006.
10. Proxorov I.A., Kryuchkov A.V., Komissarov V.A. Seleksiya i semenovodstvo ovoщnыx kultur. M., «Kolos», 1997.
11. Pivovarov V.F., Lebedeva A.T. Vыraщivaniye semyan na priusadebnom uchastke. M., «Kolos», 1995.
12. Bo'riyev H.Ch., Dusmuratova S.I. Sabzavot ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi. Ma'ruza matni. ToshDAU, 1998.
13. Pivovarov V.F. Seleksiya i semenovodstvo ovoщnыx kultur. I-II tom. M., VNIISSOK. 1999.
14. Bo'riyev H.Ch., Dusmuratova S.I. Urug'lar analizining xalqaro qoidalari. ToshDAU, 1999.

www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat partoli
www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
www.referat.ru.
www.bgreenpeace.org/gening/
www. biology.online org
www. biologycornet.com
www.Ziyonet.uz
www.library:breeding of animals and crop plants
www.megasearch.biz
www.farming.co.uk
www.agronomy.org
www samdu.uz
www.agrar.uz
www.kitoblar.uz
www toshdau.uz

7.	Fan dasturi Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2024 yil "24" avgustdagidagi 1 -son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar**: **M.A.Xayitov-** Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, meva-sabzavotchilik va uzumchilik kafedra mudiri, dotsent.

	Fan o'qituvchisi - Meva-sabzavotchilik va uzumchilik kafedra assistenti U.A.Xoshimov
9.	**Taqrizchilar:** D.S.Normuradov - Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti meva-sabzavotchilik va uzumchilik kafedrasi professori, q.x.f. doktori. **(93) 356.02.72** S,T.Sanaev – Samarqand Agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti meva-sabzavotchilik va uzumchilik kafedrasi mudiri, professori, q.x.f. doktori. **(93) 297.00.22**

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais –Sh.T.Xoliqulov

Kafedra mudiri: **M.A.Xayitov**

Institut o'quv uslubiy kengash raisi: **Sh.A.Mamasov**

Institut direktori: **T.F.Rajabov**

Sh. Rashidov nomidagi
SamDU O'quv ishlari bo'yicha
1-prorektor: **A. S. Soleyev**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi instituti 60810600 – Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi (ekin turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun Meva-sabzavot va poliz ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi 1-2 qism fanidan tayyorlangan fan dasturi va sillabusiga

TAQRIZ

Fan dasturi va sillabusida talabalarning Meva-sabzavot va poliz ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi fani bo'yicha bilim va malakalarini egallashi, ko'nikmalarini shakllantirishiga qaratilgan mavzular qamrab olingan. Fan dasturi va sillabusda Meva-sabzavot va poliz ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi fanni o'qitishdan maqsad meva-sabzavot va poliz ekinlari seleksiyasi va urug'chiligining tub mohiyati, hozirgi ahvoli va rivojlantirish istiqbollari bilan tanishtirish, yangi mahsuldor, yuqori hosil beruvchi navlarni yaratish usullari va urug' hosildorligini oshirishning samarali yo'llarini o'rganishdan iborat.

60810600 – Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi (ekin turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun Meva-sabzavot va poliz ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi fani 5/6 semestrlarda rejalashtirilgan bo'lib, unda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlari mavzulari fan dasturi asosida tuzilgan, mavzular ketma-ketligi bir-birini to'ldirib, fanning barcha bo'limlarini qamrab olgan. Mustaqil ta'lim mavzulariga alohida e'tibor berilgan bo'lib ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar mavzularida keltirilgan mavzular mustaqil ta'lim mavzulariga kiritilmaganligi talabalarning mustaqil ta'limlarda o'zlari mustaqil ravishda ishlashga qaratilgan.

Bundan tashqari fan dasturi va sillabusida keltirib o'tilgan adabiyotlarning ro'yxati o'zlarining tarkibi jihatdan sillabusda keltirilgan mavzularni ma'ruza va amaliy mashg'ulot hamda mustaqil ta'lim mavzularini o'zlashtirishda amaliy yordam beradi.

Umuman olganda fan dasturi va sillabusi 60810600 – Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi (ekin turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun Meva-sabzavot va poliz ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi fanidan tuzilgan bo'lib, oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan qo'yilgan barcha talablarga to'liq javob beradi va uni foydalanishlari uchun tavsiya etaman.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand
davlat universiteti meva-sabzavotchilik
va uzumchilik kafedrasi professori, q.x.f. doktori. **D.S.Normurodov**